

**Buxoro davlat universiteti  
o'quv-metodik kengash 6-sonli  
yig'ilishining bayonnomasidan**

**K O' C H I R M A**

31.01.2022

**Buxoro shahri**

**K U N T A R T I B I:**

**1. Turli masalalar.**

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası mudiri D. Mamatov va professor N.Yodgorovning 5110800-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi uchun "Chizma geometriya" deb nomlangan o'quv-uslubiy qo'llanmani tavsiya etish.

**E S H I T I L D I:**

**M.Y. Farmanova (kengash kotibasi)** - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası mudiri D. Mamatov va professor N.Yodgorovning 5110800-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi uchun "Chizma geometriya" deb nomlangan o'quv-uslubiy qo'llanmani nashrga tavsiya etishni ma'lum qildi. Ushbu metodik qo'llanmaga: QarDU Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent I.B. Kamolov va BuxDU huzuridagi Pedagogika institute San'at kafedrası dotsenti, t.f.n. M.M. Badiyevlar tomonidan ijobiy taqriz berilgani ta'kidlandi. Metodik qo'llanma muhokamasi haqidagi San'atshunoslik fakulteti (2021-yil 28-dekabr) va Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası (2021-yil 23-noyabr) yig'ilish qarori bilan tanishtirdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib o'quv-metodik kengash

**Q A R O R Q I L A D I:**

1. Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası mudiri D. Mamatov va professor N.Yodgorovning 5110800-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi uchun "Chizma geometriya" deb nomlangan o'quv-uslubiy qo'llanma nashrga tavsiya etilsin.

O'quv-metodik kengash raisi

O'quv-metodik kengash kotibasi




R.G'. Jumayev

M.Y. Farmanova

**DILSHOD MAMATOV**  
**NODIR YADGAROV**

**CHIZMA GEOMETRIYA**





UDK: 514.18(075)

BBK: 22.151.3ya7

M 23

Mamatov, D., Yadgarov, N. Chizma geometriya (Tekis egri chiziqlarni mosliklar asosida almashtirish usullari) [Matn] : o'quv-uslubiy qo'llanma / D. Mamatov, N. Yadgarov. - Buxoro: BUXORO DETERMINANTI, 2022. 104- b.

UO'K 514.18(075)

KBK 22.151.3ya7

Mazkur o'quv qo'llanma 61110800 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi mutaxassisligi uchun Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan muvofiqlantiruvchi kengashning tavsiyasiga asosan, 25.08. 2021 yil, 631 - sonli qaydnomasi bilan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tuzilgan.

Qo'llanmada Ba'zi masalalar yechimi teskarisidan bajarilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday masalalarni "teskri yechimga ega bo'lgan masalalar" deb atadik. Umuman olganda teskari masalalar chizma-geometriyaning hamma bo'limiga tegishli

#### Taqrizchilar:

- Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti San'atshunoslik kafedrasi dotsenti, t.f.n. M.M. Badiyev
- Qarshi davlat universiteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi mudiri, p.f.f.d (PhD), dotsent I.B. Kamolov

ISBN 978-9943-8092-2-2

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası**

**DILSHOD MAMATOV  
NODIR YADGAROV**

**CHIZMA GEOMETRIYA  
(Tekis egri chiziq larni mosliklar asosida almashtirish usullari)**

**5110800- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi  
talabalari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma**

**BUXORO - 2021**



## MUNDARIJA

<b>Kirish</b>	3
<b>I BOB. Egri chiziqlar haqida umumiy ma`lumot.</b>	
1.1. Tekis va fazoviy egri chiziqlar to'g'risida umumiy ma`lumot	4
1.2. Ikkinchi tartibli egri chiziqlarning umumiy xossalari va yasalishi	7
<b>II BOB. Tekis egri chiziqlarni almashtirish usullari bilan yangi egri chiziqlarni hosil qilish.</b>	
2.1. Geometrik almashtirishlar	12
2.2. Konxoida almashtirish usuli bilan egri chiziqlarni hosil qilish.	18
2.3. Podera almashtirish usuli bilan egri chiziqlarni hosil qilish	30
2.4. Inversion almashtirish usuli bilan egri chiziqlarni hosil qilish	42
2.5. Konform almashtirish usuli bilan egri chiziqlarni hosil qilish	55
Testlar	57
Foydalanilgan adabiyotlar	82

## KIRISH

Respublikamizda ta`lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e`tibor berilmoqda. Bu borada ta`lim turlariga yangi qoidalar hayotga joriy etildi. Kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta`lim tizimini isloh qilishning huquqiy – me`yoriy asosi yaratildi.

Ammo tezkor rivojlanayotgan dunyoda qonunlar rivojlantirilishi, yangilanishi va zamon talabiga javob berishini ta`minlanishi lozim. Shuning uchun O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida», 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son «O`zbekiston Respublikasi xalq ta`limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida», 2002 yil 30 maydagi PF-3080-son «Komp`yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to`g`risida», 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son «Raqamli O`zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi farmonlari, 2018 yil 5 sentyabrdagi PQ-3931-son «Xalq ta`limi tizimiga yangi tamoyillarni joriy etish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Qarori, 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu qo`llanma muayyan darajada hizmat qiladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi “Yoshlar kelajagimiz” davlat dasturida qayd etilganidek, jamiyatimizning oliy maqsadi “Zamonaviy bilim va ko`nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o`z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg`ayrat yoshlarni tarbiyalash”dir.

Zero, har bir mutaxassisning barkamolligi, maqsadga intiluvchanligi, serg`ayratligini rivojlantirmay turib mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma`naviy-siyosiy, xuquqiy-axloqiy, mafkuraviy barqarorlashtirishni amalga oshirib bo`lmaydi. Demak, yoshlar ta`lim-tarbiyasi, ertangi baxtli hayotimiz, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotimizning muhim va dolzarb muammolaridan biri. Chunki, ta`lim-tarbiyasiz yoshlarni barkamol, maqsadga intiluvchan, o`z taqdiri uchun javobgar shaxs etib tarbiyalash mushkul. deyiladi.

Hozirgi zamon yangi innovatsion texnologiyalar, ta`lim-tarbiyaning samaradorligi, ta`lim jarayonini demokratlashtirish, interfaol metodlar yordamida o`qitish, ta`lim jarayoniga tizimli yondoshish masalalari kiradi. Bunday ulkan vazifalarni amalga oshirishda o`qitish amaliyotida zamonaiy va jahonning eng ilg`or texnologiyalarini qo`llashni davr taqozo qilmoqda.


Davlatimizning pedagogik kadrlar tayyorlash siyosatining muhim jihatlaridan biri bu yangi tipdagi zamon talablariga javob bera oluvchi o`qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, ularning akmeologik, kreativlik xususiyatlarini shakllantirish masalalari dolzarb muammolardan bo`lib turibdi.

## I BOB. Egri chiziqlar haqida umumiy ma`lumot.


### 1.1. Tekis va fazoviy egri chiziqlar to`g`risida umumiy ma`lumot.

Ma`lumki egri chiziqlarning geometrik va mexanik xossalari har xil mashina mexanizmlarida, mashina detallari va ichki qismlarida, qurilish konstruksiyalarida, optika, arxitektura, tasviriy va amaliy san`atda, geometrik yasashlar nazariyasi va amaliyotida chizmachilikda chizmalar tuzishda va hokazo sohalarda keng qo`llaniladi. Shuning uchun egri chiziqlarni har tomonlama o`rganish o`quvchini geometrik fikrlashini rivojlantiradi.

Har qandan egri chiziqni harakatlanuvchi biror nuqtaning izi deb qarash mumkin. Egri chiziqning hamma nuqtasi bitta tekislik ustida yotgan bo`lsa, bunday egri chiziq **tekis egri chiziq** deyiladi (1.1.1-rasm). Agar egri chiziqning nuqtalari bitta tekislik ustida yotmasa bunday egri chiziq **fazoviy egri chiziq** deyiladi (1.1.2-rasm).



1.1.1-pacm.



1.1.2-pacm




Egri chiziqlar tekis va fazoviy bo'lishidan qat'i nazar, ular yana qonuniy va noqonuniy (ixtiyorsiz), ravon va ravonmas, yopiq va ochiq bo'ladi. Qonuniy egri chiziqlar ma'lum matematika qonunlari asosida hosil bo'ladi. SHuning uchun bunday egri chiziqlarni chizib ko'rsatish bilan birga ularning tenglamalarini ham berish mumkin. Ma'lum bir qoidalarga bo'sunmasdan chiziladigan egri chiziqlar taxminan chiziladi va ularning tenglamalarini berib bo'lmaydi.


Egri chiziqlarni tsirkul, shuningdek, lekalo yordamida chizish mumkin. TSirkul yordamida chiziladigan egri chiziq'larga aylanalar, ovallar, o'ramalar va hokazolar kiradi. Lekalo yordamida chiziladigan egri chiziq'larga esa ellips, parabola, epitsikloida va shu kabilarni chizish mumkin.

Egri chiziklarning grafik ko'rinishda berilishining turli xil usullari mavjud. Tekis egri chiziqning har bir nuqtasidan unga bitta urinma va bitta normal utkazish mumkin. 1.1.3-rasmda berilgan  $\ell$  tekis egri chiziq'iga uning biror  $A$  nuqtasida urinma va normal o'tkazish ko'rsatilgan. Buning uchun  $A$  nuqta orqali egri chiziqni kesuvchi  $AE$  va  $AF$  to'g'ri chiziqlarni o'tkazamiz.  $E$  nuqtani  $A$  nuqtaga egri chiziq bo'ylab yaqinlashtira boshlaymiz. Natijada,  $AE$  kesuvchi  $A$  nuqta atrofida burila boshlaydi.  $E$  nuqta  $A$  nuqta bilan ustma-ust tushganda  $AE$  kesuvchi  $t_1$  urinmani hosil qiladi. Uni  $\ell$  egri chiziqning berilgan nuqtasida o'tkazilgan yarim urinma deyiladi.  $F$  nuqtani ham egri chiziq ustida harakatlantirib  $A$  nuqta bilan ustma-ust tushiramiz.  $AF$  kesuvchi  $t_2$  yarim urinmani hosil qiladi. qarama-qarshi yo'nalgan  $t_1$  va  $t_2$  yarim urinmalar hosil qilgan to'g'ri chiziq egri chiziqqa berilgan nuqtada o'tkazilgan urinma deyiladi. SHunday nuqtalardan tashkil topgan egri chiziq ravon egri chiziq deyiladi.

Egri chizikning  $A$  nuqtadagi  $t$  urinmaga o'tkazilgan perpendikulyar  $n$  to'g'ri chiziq uning normali deb ataladi. Ba`zan yarim urinmalar o'zaro ustma-ust tushmasdan o'zaro kesishishi mumkin. Bunday nuqtalar sinish nuqtasi deyiladi (1.1.4-rasm). Amaliyotda egri chizik'larga urinma va normal utkazish masalalari ko'p uchraydi.



1.1.3-rasm




1.1.4-rasm

### **Tekis egri chiziq nuqtalarining klassifikatsiyasi.**


Tekis egri chiziqlar monotonli ulama (tizma) chiziqlarga bo'linadi. Monotonli egri chiziqning qator nuqtalarida egrilik radiusi uzluksiz o'sib yoki kamayib boradi. Monotonli egri chiziq yoylaridan tashkil topgan chiziq ulama yoki tizma chiziq deyiladi. Bu yoylarning ulanish nuqtalari ulama chiziqlarning uchlari, ulanuvchi yoylarning o'zi esa ulama chiziqning tomonlari deb ataladi. YOylarning ulanish xarakteriga qarab, ulama chiziqning uchlari oddiy va maxsus nuqtalar bo'lishi mumkin. Egri chiziqning oddiy nuqtasida yarim urinmalar qarama-qarshi yo'nalishda bo'lib, bitta to'g'ri chiziq ustida yotadi va egrilik markazlari

ustma-ust tushadi (1.1.5-rasm). Egri chiziqlarning maxsus nuqtalari quyidagilardan iborat:


- 1) qo'sh nuqta (1.1.6-rasm). YArim urinmalar qarama-qarshi yo'nalishga ega, normallar ustma-ust tushadi, lekin egrilik markazlari har xil joylashadi;
- 2) egilib o'tish nuqtasi (1.1.7-rasm). YArim urinmalar ham, normallar ham qarama-qarshi yo'nalishda bo'ladi;
- 3) bir turdagi qatish nuqtasi (1.1.8-rasm). YArim urinmalari ustma-ust tushadi va bir xil yo'nalishda bo'ladi, normallar qarama-qarshi yo'nalishda bo'lib, bir chiziq ustida yotadi;
- 4) ikkinchi turdagi qaytish nuqtasi (1.1.9-rasm). YArim urinmalar va normallar juft-juft bo'lib bir xil yo'nalishga ega bo'ladi;
- 5) sinish nuqtasi (1.1.4-rasm). YArim urinmalar va normallar har xil yo'nalishda bo'ladi;
- 6) tugun nuqta (1.1.10-rasm). Tugun nuqtada egri chiziq o'zini-o'zi bir va bir necha marta kesib o'tadi.




1.1.5-rasm.



1.1.6-rasm.





1.1.7-rasm.



1.1.8-rasm.






## 1.2. Ikkinchi tartibli egri chiziqlarning umumiy xossalari va yasalishi.

Insoniyatning ratalish davridan boshlab otilgan tosh traektoriyasi, suvning to'liqsimon oqishi, yorug'lik nuridagi turli ranglar chegaralari, o'simlik bagrlarining shakllari, daryo va dengiz qirg'oqlari qadimdan insonlarni o'ziga jalb qilib, ularda turli chiziqlar to'g'risidagi fikrlar paydo bo'lgan.

Qadmigi grek olimlarining ulug' ishlaridan konus kesimlari haqidagi elementar nazariyani yaratganliklaridir. Bu egriliklarni hosil bo'lishini, ular kokus kesimlarini aylanma konusni tekislik bilan kesishishi natijasida hosil bo'lgan dab hisoblaganlar. Platonning shogirdi Menexm (er. Av.IV a.), shuningdek, Aristem (er. av.IV a.), Evklid (er. av.III a.), Apollon Pegskiy (250-190 y.) larning konus kesimlari hosil bo'lishi haqida asarlari mavjud.

Menexmning konus kesimlarini hosil bo'lish nazariyasi quyidagilardan iborat: *kesuvchi tekislik konus yasovchisiga perpendikulyar bo'lib, konus uchidagi burchagi o'tkir bo'lsa, kesimda ellips, to'g'ri bo'lsa kesimda parabola, o'tmas bo'lsa kesimda giperbola hosil bo'ladi.* Hozirgi davrda esa kesuvchi tekislik konusni barcha yasovchilarini kesib, uning o'qi bilan  $90^0$  dan farqli burchak hosil qilsa ellips, konusni bita yasovchisiga parallel bo'lsa kesimda parabola, ikkita yasovchisiga parallel bo'lsa kesimda giperbola hosil bo'ladi deb qaraladi.

Bunday chiziqlar to'g'ri chiziq bilan eng ko'pi ikki nuqtada kesishadi. Ikkinchi tartibli egri chiziqlar va ularning xususiyatlaridan mashinasozlikda, binokorlikda, umuman muhandislik amaliyotining barcha tarmoqlarida keng foydalaniladi. SHu boisdan ham 2-tartibli egri chiziqlari mukammal o'rganilgan. Ularga aylana, ellips, parabola, giperbola va ularning xususiy hollari kiradi. Bu egri chiziqlarning tenglamalari va ularning shakllarini aniqlovchi parametrlari analitik geometriyada to'liq o'rganiladi. CHizmachilikda va chizma geometriyada esa ularni yasash va hosil bo'lish usullari o'rganiladi.



1.2.1-расм.

### Konus kesimlari:

Konus kesimlari – doiraviy konusni (to'g'rirog'i konus sirtini) uning uchidan o'tmaydigan tekislik bilan kesganda hosil bo'ladigan egri chiziqilar.

Bunda hosil bo'ladigan chegaralanadigan figuralar (1.2.1-rasm) ellipslar, chegaralanmagani esa (agar kesuvchi tekislik konusning ikkala pallasini ham kessa) giperbolalar va parabolalar (agar kesuvchi tekislik konusning bita pallasini kessa) hosil bo'ladi. Cho'ntak fonarini tekis yuzaga turli xil burak ostida yo'naltirib, konus kesimlarining barcha turlarini osongina hosil qilish mumkin. To'g'ri bunda giperbolaning faqat bita tarmog'i paydo bo'ladi. Uning ikkinchi tarmog'ini ham ko'rish uchun fonarning o'qini  $180^\circ$  ga burish lozim. Turli konus kesimlarini hosil qilishning bir xil usuli bu egri chiziqilarni tasvirlovchi tenglamalarning o'xshaligini ta'minlaydi. Kesuvchi tekislikda koordinatalar sistemasini konus kesimining tenglamasi  $y^2 = 2px + \lambda x^2$  ko'rinishini oladigan qilib tanlash mumkin, bunda  $p$  va  $\lambda$  o'zgarimas sonlar.  $\lambda=0$  da  $p \neq 0$  bo'lsa, bu tenglama parabolani,  $\lambda < 0$  da ellipsni,  $\lambda > 0$  giperbolani aniqlaydi. Konus kesimlarining keltirilgan tenglamadagi xossasi qadimgi yunon olimlariga ham ma'lum edi. Apolloniy Pergskiy (e. a. II a.) ga konus kesimlarining har xil turligiga bizning kunlarga saqlanib qolgan nomlarni berish uchun xuddi shu xossa asos bo'lgan: yunoncha «parabola» so'zi «tirash»ni bildiradi (chunki yunonlar geometriyaning yuzasi  $y^2$  ga teng to'g'ri to'rtburchakni berilgan  $2p$  asosli unga tengdosh to'g'ri to'rtburchakka almashtirish amali berilgan asosga «tirash» deb atalar edi), «ellips» so'zi «kami bilan» degani (ya'ni kami bilan tirash), «giperbola» so'zi «ortig'i bilan» (ya'ni ortig'i bilan tirash)ni bildiradi.

Konus kesimlarining qutbiy koordinatalaridagi tenglamalari ham juda o'xshash. Agar egri chizikning fokusi qutb uchun, egri chiziqning fokusi orqali o'tuvchi o'qi qutb o'qi uchun qabul qilinsa, u holda ushbu formulani hosil qilamiz:

$$r = \frac{p}{1 - \varepsilon \cos \varphi}.$$

Bu formula  $0 \leq \varepsilon \leq 1$  bo'lsa, ellipsning ( $\varepsilon = 0$  da aylananing) tenglamasi bo'ladi,  $\varepsilon = 1$  da esa giperbolani tasvirlaydi.  $\varepsilon$  soni konus kesimlarining ekstsentrisiteti,  $p$  esa fokal parametri deyiladi. Qadimgi yunon matematiklari faqat konusning biror yasovchisiga perpendikulyar kesimni qarashgan, turli xil egri chiziqilarni esa konus yasovchilari



orasidagi burchakni o'zgartirish bilan hosil qilishgan. Jumladan, ular aylanadan boshqa har qanday konus kesimi uchun uning tekislikdagi quyidagi xossaga ega to'g'ri chiziqning mavjudligini topishgan: konus kesimi nuqtalaridan fokusigacha bo'lan masofaning shu to'g'ri chiziqqa bo'lgan masofaga nisbatan o'sha konus kesimining ekstsentrisitetiga teng (1-jadval). Bunday to'g'ri chiziq konus kesimining direktrisasi deb atalgan. Boshqacha aytganda, konus kesimining ixtiyoriy  $M$  nuqtasi uchun  $d_1 : d_2$  nisbatan o'zgarmas bo'ladi. Bu nisbatning qiymati  $\varepsilon$  konus kesimining ekstsentrisiteti deyiladi.  $d_1$  –  $M$  nuqtadan konus kesimining fokusi  $G$  gacha  $d_2$  esa direktrisasi  $l$  gacha bo'lgan masofa

Konus kesimlariga matematiklarning bunchalik qiziqib qolishlariga sabab, agar kesuvchi tekislikdagi ixtiyoriy Dekart koordinatalar sistemasida konus kesimining tenglamasi yozilsa, u holda bu tenglama hamma vaqt ikkinchi tartibli algebraik tenglama, ya'ni

$$ax^2 + bxy + cy^2 + dx + ey + f = 0$$

ko'rinishida bo'ladi.


Ta'rif. Ikkinchi darajali tenglama bilan ifodalanuvchi egri chiziqlar ikkinchi tartibli egri chiziqlar deyiladi. Bunday chiziqlar to'g'ri chiziq bilan eng ko'pi ikki nuqtada kesishadi. Ikkinchi tartibli egri chiziqlar va ularning xususiyatlaridan mashinasozlikda, arxitekturada, optika, artilleriya, aviatsiyada va xalq xo'jaliginig boshqa tarmoqlarida keng foydalaniladi. SHu boisdan ham bu oila chiziqlari mukammal o'rganilgan. Ularga aylana, ellips, parabola, giperbola va ularning xususiy hollari kiradi. Bu egri chiziqlarning tenglamalari va ularning shakllari analitik geometriyada to'liq o'rganiladi. CHizmachilikda va chizma geometriyada esa ularni yasash usullari o'rganiladi. Ikkinchi tartibli egri chiziqlarning nomi, ta'rifi, tenglamasi va ularning shakllari 1-jadvalda keltirilgan.

Tekis egri chiziqlarni mosliklar asosida almashtirib yangi eriliklarni hosil qilish jarayonida, 1-jadvaldagi ikkinchi tartibli tekis egri chiziqlar va ularning xususiy hollaridan foydalanamiz.

### Aylana

Markaz deb ataluvchi nuqtadan teng masofalarda joylashgan nuqtalarning to'plami aylana deyiladi.


$$x^2 + y^2 = R^2$$



### Ellips

Fokuslar deb ataluvchi ikki  $F_1$  va  $F_2$  nuqtadan uzoqliklarining yig'indisi o'zgarmas miqdor bo'lgan nuqtalarning to'plami ellips deyiladi.  $[F_1] + [F_2] = AB$

$$\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1$$




### Giperbola

Fokuslar deb ataluvchi  $F_1$  va  $F_2$  nuqtadan uzoqliklarining ayirmasi o'zgarmas miqdor bo'lgan nuqtalarning to'plami ellips deyiladi.

$$[F_1] - [F_2] = AA_1$$

$$\frac{x^2}{a^2} - \frac{y^2}{b^2} = 1$$




### Parabola

$F$  fokus va  $m$  to'g'ri chiziqda teng masofalarda joylashgan nuqtalarning to'plami parabola deyiladi.

$$[F] = [A]$$

$$y^2 = 2px.$$



## II BOB. Tekis egri chiziklarni almashtirish usullari bilan yangi egri chiziklarni xosil qilish.

### 2.1. Geometrik almashtirishlar.

Ma`lum qonun (yo qoida) bo'yicha berilgan figuradan yangi figura hosil qilishga berilgan figurani geometrik almashtirish deb aytiladi.

Geometrik almashtirishni yana quyidagicha ham ta`riflash mumkin. Ma`lum qoida asosida tekislikning har bir  $M$  nuqtasiga shu tekislikdagi aniq  $M'$  nuqta mos keltirilsa, tekislikdagi nuqtalarni almashtirish yo'li aniqlangan yoki qisqacha, almashtirish berilgan deyiladi va bu simvolik ravishda quyidagicha ko'rsatiladi:

$$f_1(M) \equiv M'. \quad (1)$$

Bundagi  $M'$  nuqta  $M$  nuqtaning obrazi (aksi),  $M$  nuqta esa  $M'$  nuqtaning proobrazi (asli) deyiladi. Bundagi  $f$  simvoli almashtirishning nimadan iboratligini ko'rsatadi.

Tekis  $F$  figuraning har bir  $M$  nuqtasiga mos  $M'$  obrazlar to'plamidan iborat  $F'$  figura  $F$  figuraning obrazi deyilib,  $F$  figura esa  $F'$  figuraning proobrazi deyiladi va bu ham simvolik ravishda quyidagicha ko'rsatiladi:

$$f(F) \equiv F' \quad (1')$$

Bunda harakatdagi  $M$  nuqta  $F$  figuraning hamma nuqtalari vaziyatini olib o'tganda  $f$  almashtirish bo'yicha  $M$  ga mos  $M'$  nuqta ham o'z o'rinlarini o'zgartirib,  $F'$  figurani chizib beradi.

$M'$  nuqtaning vaziyati  $M$  nuqtaning vaziyatiga bog'liq bo'lgani uchun  $M$  nuqta  $M'$  nuqtaning argumenti,  $M'$  nuqta esa  $M$  nuqtaning funktsiyasi deyiladi.


(1') dagi  $F$  va  $F'$  figuralarning har biri bitta nuqtadan, ayrim nuqtalar to'plamidan, ixtiyoriy chiziqdan yoki tekislikning biror bo'lagidan, yoki tekislikdan iborat bo'lishi mumkin.

1-misol. 2.1.1-rasmdagi  $OX$  o'kda yotgan nuqtalarni  $y = kx$  ( $k \neq 0$ ) tenglama yordamida koordinatalar boshidan o'tuvchi to'g'ri chiziqdagi nuqtalarga almashtirish mumkin. Buning uchun  $OX$  o'qda  $M(x1, 0)$  nuqtaga koordinatalari  $x1$  va  $u1 = kx1$  bo'lgan nuqtani mos keltirish kerak.


Agar  $M$  nuqta  $OX$  o'q bo'yicha siljisa, unga mos  $M'$  nuqta  $OA$  to'g'ri chiziq bo'yicha harakatlanadi.

2-misol. Ixtiyoriy  $AOV$  o'tkir burchakning bir tomonidagi nuqtalarni uning ikkinchi tomonidagi nuqtalarga turlicha almashtirish

mumkin; bulardan biri  $OB$  tomon nuqtalariga shu nuqtalarning  $OA$  tomonidagi ortogonal proektsiyalarini mos keltirishdir (2.1.2-rasm).



2.1.1-pacm.




2.1.2-pacm

3-misol. 2.1.3-rasmdagi  $OAB$  burchakning  $OB$  tomonidagi  $M, N, \dots$  nuqtalarga  $OA$  tomondagi  $M', N', \dots$  nuqtalari shu burchakning bissektrisasiga o'tkazilgan perpendikulyarlar vositasida mos keltirish mumkin.


Olgan misollarimizda  $M$  nuqtaga  $M'$  ni  $N$  nuqtaga  $N'$  ni va hokazo mos keltirildi.  $OB$  nurdagi har qanday nuqtaga shu almashtirishga asosan  $OA$  nurdan unga mos bo'lgan nuqtani topish mumkin. SHuning uchun quyidagilarni yoza olamiz:

$$f(M) \equiv M', \quad f(N) \equiv N', \dots$$

4-misol.  $y = x^2$  tenglama bilan berilgan 2.1.4-rasmdagi parabola nuqtalariga uning simmetriya o'qi  $OY$  nuqtalarini mos keltirish mumkin. Buning uchun parabolada yotgan  $M_1$  nuqtaning abtsissasi  $x_1$  bo'lsa,  $M' (0, x_1^2)$  nuqtani unga mos keltiramiz.  $M'$  nuqta  $M_1$  nuqtaning  $OY$  dagi ortogonal proektsiyasi deb ham qarash mumkin.



2.1.3-rasm.



2.1.4-rasm.

Geometriyada har bir nuqtaning proobrazi bitta nuqta bo'lgan obrazlarni hosil qiluvchi almashtirishlar katta ahamiyatga egadir.

Bunday almashtirishga, odatda, o'zaro bir qiymatli almashtirish deyiladi va bundagi  $G'$  proobraz bilan  $F'$  obraz nuqtalari orasidagi moslikka o'zaro bir qiymatli moslik deyiladi.

YUqorida ko'rsatilgan misollardan 1, 2, 3-lari o'zaro bir qiymatli almashtirish bo'lib, 4-misoldagi almashtirish esa o'zaro bir qiymatli emas. U erda 2-1 moslik kuzatiladi.

Agar  $f(M) \equiv M'$  almashtirish o'zaro bir qiymatli almashtirish bo'lsa, har biri  $M'$  obrazga bitta  $M$  proobraz topiladi, bu holda  $M'$  nuqtaga  $M$  ni mos keltiruvchi (ya'ni obrazdan proobrazga o'tishdan iborat) almashtirish  $f$  almashtirishga nisbatan teskari almashtirish deb ataladi va  $f^{-1}$  bilan belgilanadi:

$$f^{-1}(M') \equiv M .$$

Geometriyada uchraydigan hamma o'zaro bir qiymatli almashtirishlar ichida harakat deb ataluvchi almashtirishlar muhim o'rin tutadi. Geometriyada harakat quyidagicha ta'riflanadi: **agar almashinuvchi figuraning  $MN$  kesma shu nuqtalarning obrazlari  $M'$  va  $N'$  nuqtalarni tutashtiruvchi kesmaga teng bo'lsa, bunday almashtirish harakat deb ataladi.**

YUqorida ko'rilgan misollardan uchinchisi harakatdir (3-rasm), chunki yasalishiga ko'ra  $MM'$  bilan  $NN'$  kesmalar  $OS$  bissektrisaga perpendikulyar bo'lgani uchun  $ON = ON'$  va  $OM = OM'$ ; bunda  $MN = M'N'$ . Qolgan uchta misolda ko'rsatilgan almashtirishlarning birortasi ham harakat bo'la olmaydi.

Agar  $f$  almashtirish harakat bo'lsa, bu almashtirish o'zaro bir qiymatli bo'ladi. Haqiqatan,  $A'$  obraz bitta proobrazga emas, balki ikkita  $A_1$  va  $A_2$  proobrazga ega deb faraz qilaylik. Bu holda harakatning ta'rifiga ko'ra,  $A_1 A_2 = A' A' = 0$  bo'lishi kerak; ya'ni  $A_1$  va  $A_2$  nuqtalar ustma-ust tushishi lozim, ammo  $A_1$  va  $A_2$  nuqtalar har xil bo'lgani uchun bu tenglik bajarilmaydi. Demak, harakat natijasida har bir obraz birgina proobrazga ega bo'lib, almashtirish o'zaro bir qiymatli bo'ladi.

Agar  $G'$  figura harakat bo'lgan almashtirish natijasida  $F'$  figuraga o'tsa,  $G'$  va  $F'$  figuralar o'zaro teng deb ataladi. Harakat bilan tenglikning ta'riflaridan ma'lum bo'ladiki, harakat teng figurlarning nuqtalari orasidagi bir qiymatli moslikdir, ya'ni harakat har bir figurani o'ziga teng figuraga o'tkazuvchi almashtirishdir.

CHizma geometriyada ayrim almashtirishlar bilan bir qatorda, ma'lum talablarga javob beruvchi almashtirishlar to'plami juda ahamiyatlidir. Bular tekis parallel harakatlantirish, simmetrik almashtirish, aylantirish, gomotetiya (o'xshash almashtirish), podera, inversiya, konxoida, konform va shu kabi geometrik almashtirishlar mavjud.

### **Tekis–parallel harakatlantirish usuli**


Tekis–parallel harakatlantirish usulida geometrik shaklni proektsiyalar tekisliklari sistemasiga nisbatan vaziyatini maqsadga muvofiq ravishda o'zgartirish uchun uning barcha nuqtalarining harakatlanish traektoriyalari bir–biriga parallel tekisliklarda harakatlantirish yo'li bilan bajariladi.

Harakatlantirish tekisliklarining vaziyati va geometrik shakl nuqtalari harakatlanish traektoriyasining xarakteriga qarab tekis–parallel harakatlantirish usuli parallel harakatlantirish va aylantirish usullariga bo'linadi.


***Parallel harakatlantirish usuli.*** Bu usulda fazoda berilgan geometrik shaklning har bir nuqtasi proektsiyalar tekisligiga parallel bo'lgan gorizonta yoki frontal tekisliklarda harakatlantiriladi. SHuning natijasida hosil bo'lgan yangi proektsiyaning proektsiyalar tekisligiga nisbatan vaziyati o'zgaradi. 2.1.5-rasmda  $A$  nuqta  $H_1$  gorizonta tekislikda harakatlantirilib  $A_1$  vaziyatga keltirilgan. Bunda  $A$  nuqta  $A_1$  vaziyatga qanday traektoriya (to'g'ri yoki egri chiziqlar) bo'ylab harakatlantirilishidan qat'iy nazar, uning  $A''$  frontal proektsiyasi ( $A_1''$  vaziyatga) tekislikning  $H_{IV}$  izi bo'yicha harakatlanadi. SHuningdek 2.1.6-a-b-rasmdagi  $V$  nuqta  $V_1$  frontal tekislikda  $B_1$  vaziyatga har



qanday traektoriya bo'yicha harakatlantirilmasin, uning  $B'$  proeksiyasi  $V_{1H}$  izi bo'yicha harakatlanib,  $B_1'$  vaziyatni egallaydi.



2.1.5-rasm.



2.1.6-rasm

YUqorida bayon etilganlardan quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Fazoda nuqtani gorizontaal proeksiyalar tekisligiga parallel tekislikda har qanday traektoriya bo'yicha harakatlantirilsa ham, uning frontal proeksiyasi  $Ox$  o'qiga parallel to'g'ri chiziq bo'yicha harakatlanadi.


Fazoda nuqtani frontal proeksiyalar tekisligiga parallel tekislikda har qanday traektoriya bo'yicha harakatlantirilsa ham, uning gorizontaal proeksiyasi  $Ox$  o'qiga parallel to'g'ri chiziq bo'yicha harakatlanadi

## Aylantirish usuli

Aylantirish usuli parallel harakatlantirish usulining xususiy holi hisoblanadi. Bu usulda geometrik shaklga tegishli nuqtaning traektoriyasi ixtiyoriy bo'lmay, balki berilgan biror o'qqa nisbatan aylana bo'yicha harakatlanadi. Aylana markazi berilgan o'qda joylashgan bo'lib, aylanish tekisligini aylanish o'qi bilan kesishgan nuqtasi bo'ladi, aylanish radiusi esa harakatlanuvchi nuqta bilan aylanish o'qi orasidagi masofaga teng bo'ladi.

Aylanish o'qlari proektsiyalar tekisliklariga nisbatan perpendikulyar, parallel, shuningdek, proektsiyalar tekisligiga tegishli va boshqa vaziyatlarda bo'lishi mumkin.

**Nuqtani aylantirish.**  $N$  va  $V$  tekisliklar sistemasiida ixtiyoriy  $A$  nuqta va  $i$  aylanish o'qi berilgan bo'lsin (2.1.7–rasm, a). Agar  $A$  nuqtani  $i \perp V$  aylanish o'qi atrofida harakatlantirsak, mazkur nuqta  $V$  tekislikka parallel  $v_1$  tekislikda radiusi  $OA$  ga teng aylana bo'yicha harakatlanadi. Shuningdek,  $A$  nuqtaning harakatlanish traektoriyasining gorizontaal proektsiyasi  $v_1$  tekislikning  $v_{1N}$  izi bo'yicha harakat qiladi. CHizmada  $v_1$  tekislik  $V$  tekislikka parallel bo'lgani uchun  $A$  nuqtaning frontal proektsiyasi aylana bo'yicha, gorizontaal proektsiyasi  $v_{1N} \parallel Ox$  bo'yicha harakat qiladi (2.1.7–rasm, b).



2.1.7-rasm


$V$  nuqtaning  $N$  tekislikka perpendikulyar  $i$  o'qi atrofida aylantirilishi 2.1.8–rasm, a da ko'rsatilgan.  $V$  nuqta  $B_1$  vaziyatga radiusi  $OV$  ga teng aylana bo'yicha  $N$  tekislikka parallel bo'lgan  $H_1$  tekislikda harakatlanadi. Bunda  $H_1$  tekislik  $N$  tekislikka parallel bo'lgani uchun  $V$  nuqta harakatlanish traektoriyasining gorizontal proektsiyasi aylana bo'yicha, frontal proektsiyasi  $H_1$  tekislikning  $H_{1V}$  izi bo'yicha  $Ox$  ga parallel bo'lib harakatlanadi. (2.1.8–rasm, b).

YUqorida bayon qilinganlardan quyidagi xulosalarga kelamiz:

Agar  $A$  nuqta frontal proektsiyalar tekisligiga perpendikulyar o'q atrofida aylantirilsa, mazkur nuqtaning frontal proektsiyasi aylana bo'yicha, gorizontal proektsiyasi  $Ox$  o'qiga parallel to'g'ri chiziq bo'yicha harakatlanadi.

Agar nuqta gorizontal proektsiyalar tekisligiga perpendikulyar o'q atrofida aylantirilsa, nuqtaning gorizontal proektsiyasi aylana bo'yicha, frontal proektsiyasi  $Ox$  o'qiga parallel to'g'ri chiziq bo'yicha harakatlanadi.

Nuqtani proektsiyalar tekisligiga perpendikulyar o'q atrofida aylantirish qoidalariga asosan umumiy vaziyatda joylashgan geometrik shakllarni xususiy yoki talab qilingan vaziyatga keltirish mumkin.




2.1.8-rasm

## 2.2. Konxoida almashtirish usuli bilan egri chiziqlarni hosil qilish.

Uchta qadimgi klassik masalalar burchak trisektsiyasi, kubni ikkilantirish va doira kvadraturasini echishda YUnon matematiklarining urinishlari zoe ketdi, bu masalalar ularga «bo'ysunmadi». Ular bu masalalarni tsirkul va chizg'ich yordamida yasash bilan hal qilishga muvaffaq bo'lmadilar. Ular echish uchun boshqa usullar, yangi asboblardan, egri chiziqlar taklif qilish yo'lini tutishdi. Yangi eradan taxminan 200 yilcha avvalroq yashagan qadimgi YUnon matematigi *Nikomed* burchak trisektsiyasi va kubni ikkilantirish masalalarini hal etish uchun maxsus egri chiziqdan foydalanadi. U bu egri chiziqni konxoida deb atadi (konxoida yunoncha *konchoeides*-«chig'anoqsimon»).

Konxoidani yasash uchun tekislikda to'g'ri chiziq va undan  $a$  masofada yotuvchi  $O$  (polyus) nuqta olamiz.  $O$  (polyus) nuqtadan to'g'ri chiziqni biror  $M$  nuqtada kesivchi nur o'tkazamiz:  $M$  nuqtadan avvaldan tanlangan (berilgan)  $a$  masofada yotuvchi  $M_1$  va  $M_2$  nuqtalarni belgidaymiz.  $OM$  nurni turli yo'nalishda o'tkazilganda  $M_1$ ,  $M_2$  konxoidaning nuqtalari bo'ladi. Boshqacha aytganda konxoida to'g'ri chiziqning har nuqtasi radius-vektorini bir xil miqdorda orttirish yoki kamaytirish natijasida hosil bo'ladigan tekis egri chiziq.



2.2.1-расм.


Bu erda konxoidaning qutb koordinatalaridagi tenglamasi kelib chiqadi:

$$\rho = \pm d + a / \cos \varphi.$$

Uning Dekart koordanatalaridagi tenglamasi  $(x-a)^2(x^2 + y^2) - d^2x^2 = 0$  ko'rinishiga ega. Konxoida shakli  $a$  soniga juda ham bog`liq: agar bu son  $O$  (polyus) nuqtadan tanlangan to'g`ri chiziqqacha bo'lgan masofadan katta bo'lsa, konxoidada sirtmoq hosil bo'ladi (2.2.1-rasm).

Frantsuz olimi B. Paskalning otasi E. Paskal yuqoridagi kabi yasamani aylana va unda yotuvchi nuqtaga nisbatan qo'lladi. Hosil bo'lgan egri chiziq aylana konxoidasi yoki Paskal chig`anog`i nomini oldi. Uning shakli ham  $a$  soniga g`oyatda bog`liq, ammo bu safar sirtmoq  $a$  soni aylana diametridan kichik bo'lganda hosil bo'ladi.  $a$  soni aylana diametriga teng bo'lgan holda Paskal chig`anog`i kardioidaga aylanadi (2.2.2-rasm).

Konxoida almashtirish usulida aylana, ellips, parabola, oval va ikkinchi tartibli egri chiziqlar yordamida yangi egri chiziqlarni hosil qilamiz.



2.2.2-rasm

Berilgan aylanani konxoida almashtirishda bazaviy egri chiziq qilib olamiz,  $O$  – polyus nuqtani bazaviy egri chiziqning markazida belgilab  $O$  – polyus nuqtadan  $t_1, t_2, t_3 \dots$  nurlar chiqarib  $a$  masofani o'lchab bazavoy egri chiziqning ichki va tashqi ya'ni,  $1_1 = 1 = 1_2$ ,  $2_1 = 2 = 2_2$ ,  $3_1 = 3 = 3_2$ , ... masofalar  $t_1, t_2, t_3 \dots$  nurlarga o'lchab qo'yiladi va hosil bo'lgan nuqtalar silliq tutashtirilsa berilgan bazaviy egri chiziqqa ichki va tashqi yangi egrilik hosil bo'ladi. Bazaviy egri chiziqlar ochiq va yopiq egri chiziqlardan tashkil topadi. Konxoida almashtirish usulida hosil bo'ladigan yangi tekis egri chiziqlarda belgilangan  $O$  – polyus nuqtaning joylashgan holatiga qarab ochiq va yopiq tekis egri chiziqlarni hosil qiladi.

$O$  – polyus nuqtani bazaviy (aylana) egri chiziqdan tashqarida ixtiyoriy joyda berilganda parabolaga o'xshash ochiq tekis egrilik hosil bo'ladi.

Bazaviy egri chiziq qilib parabola, aylana, ellips, giperbola, va tekis egri chiziqlarni mosliklar asosida almashtirish usuli bilan yangi egriliklarni hosil bo'lishini quyidagi jadvallarga solib ko'rib chiqamiz. (2-jadval).

Konxoida almashtirish usulini bitta simmetriya o'qiga ega bo'lgan ovalni bazaviy egrilik qilib yangi egriliklarni hosil qilish ham jadvalga ketirilgan. Hosil bo'lgan egri chiziqlar ichki va tashqi yopiq tekis egri chiziqni hosil qiladi. Natijada hosil bo'lgan egri chiziq katta va kichik oval shaklidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

Konxoida almashtirish markazi  $O$  – polyus nuqtani ovalning simmetriya o'qi bilan kesishgan joyda belgilangan 2-jadvalga hosil bo'lgan egrilikni kardiodani yasash usulidan biri,  $a$  masofadagi aylanani ovalning sirti bo'ylab sirpantirmasdan g'ildiratsak kardiodaga o'xshash shakl hosil bo'ladi.




Konxoida almashtirish markazi  $O$  – polyus nuqtani ovalning turli joylarida belgilab olib quyidagi jadvalga keltirilgan egriliklarni hosil qilish mumkin bunda ochiq va yopiq tekis egri chiziqlar hosil bo'ladi. Agarda hosil bo'lgan ochiq egri chiziqni o'z yo'nalishi bo'yicha davom ettirilsa tugun nuqtali egri chiziq hosil bo'ladi.







2-жадвал.

№	Номи, белгиланиши	Конхоида эгри чизигининг хосил булиши
1	<p>Конхоида алмаштириш усулининг хусусий холи, <math>O</math> полюс нуктаси базавий (ихтиёрий эгрилик) эгри чизикнинг устида ётмаган, ихтиёрий жойида берилган</p>	
2	<p>Конхоида алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>O</math> полюс нуктаси базавий (айлана) эгри чизикнинг марказида берилган</p>	
3	<p>Конхоида алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>O</math> полюс нуктаси базавий (айлана) эгри чизикнинг устида берилган</p>	
4	<p>Конхоида алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>O</math> полюс нуктаси базавий (айлана) эгри чизикдан ташкарида ихтиёрий жойида берилган</p>	

№	Номи, белгиланиши	Конхоида эгри чизигининг хосил булиши
5	<p>Конхоида алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>O</math> полюс нуктаси базавий (овал) эгри чизикнинг устида берилган</p>	
6	<p>Конхоида алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>O</math> полюс нуктаси базавий (овал) эгри чизикнинг устида берилган</p>	
7	<p>Конхоида алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>O</math> полюс нуктаси базавий (овал) эгри чизикнинг ичида берилган</p>	


№	Номи, белгиланиши	Конхоида эгри чизигининг хосил булиши
8	<p>Конхоида алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>O</math> полюс нуктаси базавий (овал) эгри чизикнинг устида ихтиёрий жойида берилган</p>	
9	<p>Конхоида алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>O</math> полюс нуктаси базавий (овал) эгри чизикнинг ичида ихтиёрий жойида берилган</p>	
10	<p>Конхоида алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>O</math> полюс нуктаси базавий (овал) эгри чизикдан ташкарида ихтиёрий жойида берилган</p>	

№	Номи, белгиланиши	Конхоида эгри чизигининг хосил булиши
11	<p>Конхоида алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>O</math> полюс нуктаси базавий (эллипс) эгри чизикнинг устида берилган</p>	
12	<p>Конхоида алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>O</math> полюс нуктаси базавий (эллипс) эгри чизикнинг устида берилган</p>	
13	<p>Конхоида алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>O</math> полюс нуктаси базавий (эллипс) эгри чизикнинг марказида берилган</p>	
14	<p>Конхоида алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>O</math> полюс нуктаси базавий (эллипс) эгри чизикнинг фокусида берилган</p>	


Конхоида алмасhtirish usulida hosil bo'lgan kardioidani boshqa usullarda ham yasash mumkin.



Agar tekislikda biror aylanani mahkamlab, u bo'ylab xuddi shunday radiusli aylanani sirpantirmasdan g'ildiratsak, M nuqta yopiq traektoriya chizadi (2.2.3-rasm).



2.2.3-rasm



2.2.4-rasm

Bu yassi egri chiziq kardioida (yunoncha **Kardio** – «yurak», **eidōs** - «ko'rinishi») deb ataladi.


Kardioidani boshqacha ham hosil qilish mumkin. Aylanada O nuqtani belgilaymiz va u orqali nur o'tkazamiz. Agar bu nurning aylana bilan kesishgan A nuqtasidan aylananing diametriga teng MA kesma qo'yilsa (2.2.4-rasm) va nur O nuqta atrofida aylantirilsa, u holda M nuqta kardioida bo'ylab harakatlanadi.

Kardioida markazi berilgan aylanada yotuvchi va berilgan aylananing belgilangan nuqtasidan o'tuvchi hamma aylanaga urinadigan egri chiziq sifatida ham tasvirlanishi mumkin.

Ana shunday aylanalardan bir nechta yasalsa, kardioida o'z-o'zidan hosil bo'ladi.

Kardioidani juda nafis hamda kutilmagan tarzda namoyish qilish usuli ham bor(2.2.5-rasm).

Kardioida epitsikloidaning xususiy holi bo'lib yo'naltiruvchi va harakatlanuvchi aylanalarning radiuslari tengdir.



2.2.5-rasm

Kardioidaning qutb koordinatalaridagi tenglamasi quyidagicha:

$$\rho = 2a(1 \pm \cos\varphi),$$

Bunda  $a$ - aylana radiusi.


Dekart koordinatalaridagi tenglamasi esa ancha murakkab:

$$(x^2 + y^2 - 2ax)^2 = 4a^2(x^2 + y^2).$$

Konxoidal egri chiziqlarini hosil bo'lish usullari va turli xil bazaviy egriliklar yordamida hosil bo'lishi 2-jadvalda ko'rsatilgan.













3-jadvalda konxoida egriligini  $l$  o'q atrofida aylantirish bilan sirtlarning hosil bo'lishi 2-jadvaldagi 15-chizmadagi egrilik turli xil vaziyatlarda berilgan.






**Конхоида эгрилигини  $l$  ук атрофида айлангириш билан сиртларнинг хосил булиши**

T/P	$l$ ук атрофида айлангириш	сиртларнинг курилиши	сиртларнинг кикиб курсатилган шакллари
1			
2			
3			
4			

Т/Р	<i>l</i> ук атрофида айлантириш	сиртларнинг курилиши	сиртларнинг қирқиб курсатилган шакллари
5			
6			
7			
8			


Конхоида эгрилигини *l* ук атрофида айлантириш билан сиртларнинг хосил булиши



### 2.3. Podera almashtirish usuli bilan egri chiziqlarni hosil qilish.

Tekis egri chiziqlarning hosil bo'lish nazariyasidan ma'lumki, podera egriliklari quyidagicha hosil bo'ladi.

Biror  $m$  tekis egri chiziq va unda yotmaydigan ixtiyoriy  $R(A, V)$  nuqta berilgan bo'lsin (2.3.1-rasm).  $m$  egri chiziqning barcha nuqtalariga urinmalar o'tkaziladi.  $R$  nuqtadan bu urinmalarga perpendikulyar tushiriladi. Urinmalar va perpendikulyarlarning o'zaro kesishgan nuqtalarining geometrik o'rni  $m$  egri chiziqning podera chizig'i bo'ladi.




2.3.1-pacm

Tekis egri chiziqdan injenerlik amaliyotida konus kesimlari (yoki 2 – tartibli egriliklar – ellips, giperbola, parabola, aylana) keng qo'llaniladi. Bu egriliklarning, giperbola va parabolaning, cheksiz uzoq nuqtalari mavjuddir. SHuning uchun giperbola va parabola egriliklarini hosil qilish va ularni asimptotik nuqta va to'g'ri chiziqlarini qarab chiqiladi.

Masalan: bazis egri chiziq sifatida  $P$  parabola berilgan bo'lsin,  $P$  polyus nuqtani parabolaning  $OU$  o'qi ustida tanlaymiz (2.3.2-rasm). Parabolaning ixtiyoriy 1,2,3,...nuqtalariga  $t_1, t_2, t_3, \dots$  urinmalar o'tkazib, bu urinmalarga  $P$  nuqtadan perpendikulyarlar tushirilsa, 1,2,3,1,...nuqtalar hosil bo'ladi. Bu nuqtalar tartib bilan silliq tutashtirilsa,  $l$ -podera chizig'i hosil bo'ladi. Bu egri chiziqni yo'nalish

xarakteriga qarab  $OU$  koordinatalar o'qi va parabola direktrissasi uning asimptotasi bo'ladi.  $P$  polyus nuqtani parabola tekisligining ixtiyoriy joyida tanlash ham mumkin.



Bazis egri chiziq sifatida ellips, giperbola, tsikloida, va boshqa turli tekis egri chiziqlarni olib turli xil podera egri chiziqlar hosil qilish mumkin.



2.3.2-pacm

Podera egri chiziqlarini mos baziviy egriliklar bilan almashtirishlar 4-jadvalda batafsilroq ko'rsatilgan.




5-jadvalda podera egriligini  $l$  o'q atrofida aylantirish bilan sirtlarning hosil bo'lishi 4-jadval 11-chizmadagi egrilik turli xil vaziyatlarda berilgan.




№	Номи, белгиланиши	Подэра эгри чизигининг хосил булиши
1	<p>Подэра алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>P</math> полюс нуктаси базавий (айлана)эгри чизикдан ташкарида ихтиёрий берилган</p>	
2	<p>Подэра алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>P</math> полюс нуктаси базавий (айлана)эгри чизикнинг устида берилган</p>	
3	<p>Подэра алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>P</math> полюс нуктаси базавий (айлана)эгри чизикнинг радиусини уртасида берилган</p>	
4	<p>Подэра алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>P</math> полюс нуктаси базавий (айлана) эгри чизикнинг марказида берилган</p>	






№	Номи, белгиланиши	Подэра эгри чизигининг хосил булиши
5	Подэра алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг $P$ полюс нуктаси базавий (эллипс) эгри чизикдан ташкарида ихтиёрий берилган	
6	Подэра алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг $P$ полюс нуктаси базавий (эллипс) эгри чизикнинг устида берилган	
7	Подэра алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг $P$ полюс нуктаси базавий (эллипс) эгри чизикнинг устида берилган	
8	Подэра алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг $P$ полюс нуктаси базавий (эллипс) эгри чизикнинг $F$ фокусида берилган	
9	Подэра алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг $P$ полюс нуктаси базавий (эллипс) эгри чизикнинг марказида берилган	
















№	Номи, белгиланиши	Подэра эгри чизигининг хосил булиши
10	<p>Подэра алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>P</math> полюс нуктаси базавий (парабола) эгри чизикдан ташкарида ихтиёрий берилган</p>	
11	<p>Подэра алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>P</math> полюс нуктаси базавий (парабола) эгри чизикнинг устида берилган</p>	
12	<p>Подэра алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>P</math> полюс нуктаси базавий (парабола) эгри чизикнинг фокусида берилган</p>	


№	Номи, белгиланиши	Подэра эгри чизигининг хосил булиши
13	<p>Подэра алмаштириш усули билан хосил булган эгриликнинг <math>P</math> полюс нуктаси базавий (парабола) эгри чизикнинг координата укида берилган</p>	
